Amalga oshirilgan so'rvonoma asosida biz tahlillarni amalga oshirishda potensial mijozlarning depozit siyosatiga nisbatan munosabati va ularning qanday moliyaviy qarorlarni qabul qilishga moyilligini aniqlashga e'tibor qaratamiz. Bunda insonlarning ijtimoiy ko'rsatkich omillari va daromad olish darajalari, oiladagi o'rtacha daromad darajasining shakllanishi kabi olmillardan natijasida jamg'armalarning shakllanishi depozitga ta'siri aniqlash va baholashga erishiladi. O'tkazilgan so'rvonomaning o'rtacha miqdorlariga e'tibor qaratsak, unda ishtirokchilarning eng katta yoshi 58 yosh, eng kichigi 18 yosh ekanligini kuzatish mumkin (1-jadvalga qarang).

**1-jadval. Bank depozit siyosati bo'yicha o'tkazilgan so'rvonoma tasviriy statistikasi**

No	Ko'rsatkichlar	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
1	Yoshingiz	522	24.17625	7.457079	18	58
2	Jinsingiz	522	1.45977	.498857	1	2
3	Ma'lumotingiz	522	2.965517	.8420103	1	5



4	Oilaviy holatingiz	522	1.697318	.5781967	1	4
5	Bitta bank nomini yozing	522	9.467433	5.418732	1	24
6	Ortiqcha mablag'laringiz bo'lganda nima qilardingiz?	522	2.854406	1.366542	1	5
7	Oilada necha kishisizlar?	522	5.088123	1.53397	1	11
8	Ijtimoiy holatingiz?	522	4.183908	2.111273	1	6
9	Oilangiz daromadi qancha?	522	2.873563	1.071042	1	4
10	Oylik daromidingiz qancha?	522	2.042146	.9806896	1	4
11	Qanday turdag'i bank hisob raqamingiz bor?	522	1.356322	.5536897	1	3
12	Bankka omonat qo'yishda tanlash sababingiz?	522	3.954023	2.777375	1	7
13	Muddati va summasi qat'iy bo'lgan yuqori foiz stavkali omonatga qiziqasizmi?	522	1.448276	.4977945	1	2
14	Onlayn omonatga munosabatingiz	522	2.436782	1.11215	1	4
15	Plastik kartadan xarajatlaringizga keshbek olishni istaysizmi?	522	1.241379	.6000419	1	3
16	Daromadingizni (yoki ish haqi) boshqarishda foydalanadigan plastik karta tegishli bank nomini yozing	522	8.701149	5.358076	0	23

E'tiborli jihatni, so'rvonoma ishtirokchilaridan istagan bitta hamda ular daromadlari va xarajatlarini boshqarishlarida foydalanadigan bank plastik kartasi bo'yicha bank nomini yozib berish so'ralgan. Mazkur so'rvonoma ishtirokchilar tomonidan 24 ta bank nomi qayd etilganligini kuzatish mumkin. Bu esa, 2024-yil 1-may holatiga O'zbekistonda mavjud bo'lgan 35 tadan oshiq bo'lgan banklarning barchasi ham insonlarning ong ostida saqlanib qolmayotganligini xulosa qilish mumkin.

So'rvonoma ishtirok etganlarning ong ostida saqlanib qolgan banklarning nomini 2.-jadvalda keltirish mumkin. Unga ko'ra, mazkur banklar mijozlarni jalb qilishda boshqa banklarga nisbatan birmuncha sezilarlar ta'sirga ega ekanligini kuzatish mumkin. Ushbu banklarning nomi mos ravishda ishtirokchilarining keltirilgan ulushi (foizi)da qayd etilgan. Masalan, AT Xalq banki, Agrobank ATB 12,2 foiz ishtirokchilar tomonidan eslangan bo'lsa, Tengebank ATB, Amrbank (mavjudligi aniqlanmadи) va Qishloq qurilish banki (Biznesni rivojlantirish banki ATBga o'zgartirilgan) 0,4 foiz ishtirokchilar tomonidan qayd etilgan. Qayd etish lozim, mavjud bo'lmagan yoki nomi o'zgartirilgan har bir banklarning nomlarini 2 nafardan ishtirokchilar keltirmoqda. Bu esa, ularning bank tizimi islohotlaridan to'laqonli xabardor emasligini aks ettiradi (2-jadvalga qarang).

#### 2-jadval. So'rvonoma asosida ishtirokchilar tomonidan qayd etilgan banklar nomining qayd etish foizi

AT Xalq banki – 12,2	Agrobank ATB – 12,2	Ipak yo'li ATIB – 10,7	Milliy bank AJ – 10,0
CHEKI Xamkorbank AT 8,8	Ipoteka bank ATIB – 8,0	Kapitalbank ATB – 7,7	Oriyentbank XATB – 3,4
Mikrokredit ATB – 3,0	Asakabank AJ – 3,0	Infinbank AJ – 2,3	AT Aloqabank -2,3
Trastbank XAB – 2,3	Turonbank ATB – 2,3	O'zbekiston sanoat-qurilish banki ATB – 1,9	TBS bank ATB – 1,5
Biznesni rivojlantirish banki ATB – 1,1	Anorbank AJ – 1,1	Davrbank XATB – 0,7	Umarbank 0,7
Markaziy bank 0,7	Tengebank ATB – 0,4	Qishloq qurilish bank 0,4	Amrbank 0,4

E'tibor bersak, davlat banklari va yangi tashkil etilgan raqamli banklar aholi o'tasida mashhurroq bo'lishiga erishmoqda. Birinchidan, AT Xalq banki va Agrobank ATB filiallari O'zbekistonning barcha tumanlarida joylashganligi ishtirokchilarining ong ostida doimiy mavjud bo'lishiga olib kelmoqda. TBS bank ATB va Anorbank AJ raqamli bank sifatida yaqin yillarda faoliyat boshlagan bo'lsada, sezilarli ulush miqdorida ishtirokchilar tomonidan eslanayotganligini ko'rish mumkin.

Bizningcha, tijorat banklari tomonidan aholiga bank xizmatlariga ko'proq jalb etishda "ong ostiga joylashish" muhim ekanligini qayd etish lozim. Bunda quyidagi jihatlarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'limoqda:



Birinchidan, aholi qatnovi ko'p bo'lgan joylarda bank nomini yozish va uni hamma uchun ko'rinarli qilib joylashtirish. Ijtimoiy tarmoqlarda ham lentalarda doimiy ko'rinish turishi orqali insonlarning ong ostiga joylashishga e'tibor qaratish.

Ikkinchidan, bank nomi va logosining o'zgarmasligiga e'tibor qaratish.

Uchinchidan, masofadan boshqarilishi oson bo'lgan bank xizmatlarini ko'proq joriy etish, bunda bank ofisiga borishga bo'lgan motivni bo'lmasligiga olib kelish. Masalan, mijoz bankka tashrif buyurishga bo'lgan qizizishini keltirib chiqarmaslik.

Biz so'rovnomida davomida ishtirokchilardan bitta ixtiyoriy bankning nomini yozish bilan birga ular tomonidan o'z daromad va xarajatlarini boshqarish uchun foydalaniladigan ish haqi bank kartasi emissiya qilgan bank nomini ham yozish so'ralsan. Ushbu ikkita savol miqdoriy ahamiyatga ega bo'lib, ular o'rtasidagi bog'liqlikni Pearson chi-square testi orqali tekshirishga imkon beradi. Ushbu ikki savolga beriladigan javoblar tanlov asosida emas, balki javob ixtiyoriy yozilishi sababli ushbu ma'lumotlar miqdoriy hisoblanadi. Ular takrorlanish xususiyatiga ega. Biz mazkur tahlilni amalga oshirishda Stata 17 dasturiy ta'minotidan foydalangan holda amalga oshirdik. 3-jadvalda keltirilgan kesishma jadval uchun Pirson ka-skveyr (Pearson chi-2, df=506) testi 3800ga teng bo'lib, p-value ( $Pr = 0.000$ ) 0,1 foiz bilan ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu esa, tuzilgan jadval natijalarining statistik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi (3-jadvalga qarang).

**3-jadval.** "Bitta bank nomini yozing" va "Daromadingizni (yoki ish haqi) boshqarishda foydalanadigan plastik karta tegishli bank nomini yozing" kabi savollarning javoblari kesishma jadvali

Nº	Bank nomi	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	23	Jami
1	Turonbank	2	<b>2</b>	0	0	0	0	4	0	0	2	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	<b>12</b>	
2	Mikrokreditbank	0	0	<b>8</b>	0	0	0	0	2	0	2	0	0	0	0	0	0	4	0	0	0	0	0	<b>16</b>	
3	Oriyentbank	0	0	0	<b>12</b>	2	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	2	2	0	0	0	0	<b>18</b>	
4	Hamkorbank	2	0	0	0	<b>20</b>	0	6	2	4	2	2	0	0	0	2	6	0	0	0	0	0	0	<b>46</b>	
5	Kapitalbank	0	0	0	2	4	<b>28</b>	2	0	0	0	0	0	0	0	0	2	0	0	0	0	2	0	<b>40</b>	
6	Ipak yo'li banki	2	0	0	0	2	0	<b>34</b>	2	8	0	2	0	2	0	0	2	0	0	0	2	0	0	<b>56</b>	
7	Ipoteka bank	0	0	0	4	2	2	6	<b>16</b>	2	2	0	0	0	2	4	0	0	0	2	0	0	0	<b>42</b>	
8	Xalq banki	8	0	0	4	6	4	2	0	<b>24</b>	0	2	2	0	0	2	6	2	0	0	0	2	0	<b>64</b>	
9	Sanoat qurilish bank	0	0	0	4	0	0	2	0	0	<b>4</b>	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	<b>10</b>	
10	Milliy bank	4	0	0	2	4	0	6	6	2	4	<b>18</b>	2	0	0	0	4	0	0	0	0	0	0	<b>52</b>	
11	TBS bank	0	0	0	0	0	0	0	0	2	0	0	<b>6</b>	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	<b>8</b>	
12	Infin bank	0	0	0	0	0	0	4	2	2	0	0	0	<b>2</b>	0	0	0	0	0	0	0	0	2	<b>12</b>	
13	Davrbank	0	0	0	0	0	0	0	2	0	0	0	2	0	<b>0</b>	0	0	0	0	0	0	0	0	<b>4</b>	
14	Asakabank	0	0	0	0	0	2	0	0	2	0	2	0	0	<b>8</b>	2	0	0	0	0	0	0	0	<b>16</b>	
15	Agrobank	4	0	0	2	8	0	0	0	10	0	0	0	0	0	<b>40</b>	0	0	0	0	0	0	0	<b>64</b>	
16	Anorbank	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	2	0	2	0	0	0	0	0	0	<b>6</b>	
17	Tengebank	0	0	0	0	0	0	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0	0	<b>0</b>	0	0	0	0	<b>2</b>	
18	Qishloq qurilish bank	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	<b>2</b>	0	0	0	0	<b>2</b>	
19	Biznes rivojlantirish	0	0	0	0	0	0	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	<b>4</b>	0	0	0	<b>6</b>	
20	Aloqa bank	2	0	0	0	0	0	8	2	0	0	0	0	0	0	0	0	2	0	0	0	<b>10</b>	10	<b>0</b>	<b>24</b>
21	Trastbank	0	0	0	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	<b>0</b>	<b>12</b>	
22	Markaziy bank	0	0	0	4	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	<b>4</b>	
23	Umarbank	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	<b>4</b>	
24	Amrbank	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	2	0	0	0	0	0	0	0	<b>2</b>	
Jami		<b>24</b>	<b>2</b>	<b>8</b>	<b>34</b>	<b>50</b>	<b>36</b>	<b>80</b>	<b>32</b>	<b>58</b>	<b>14</b>	<b>28</b>	<b>12</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>18</b>	<b>72</b>	<b>4</b>	<b>2</b>	<b>4</b>	<b>8</b>	<b>14</b>	<b>10</b>	<b>4</b>	<b>522</b>

3-jadvalda keltirib o'tilgan ikkita savolga berilgan javoblar kesishmasida 22-tartib bilan keltirilgan Markaziy bank va 24 tartib raqam bilan berilgan Amrbank ustun ma'umlotlaridan chiqarib yuborilgan. Sababi, ushbu banklar tomonidan mijozlarga bank plastik kartalari orqali moliyaviy xizmatlar ko'rsatilmaganligi sababli, Stata 17 dasturiy tomonidan ushbu amalga oshirilgan. 0-tartib raqam bilan berilgan ustun bank kartasiga ega



bo'lмаган иштирокчилар томонидан киритилган явоблар исобланади. Unday иштирокчилар сони жами 24 та еканлигини инобатга оlish зарур.

Uning natijalarini 4-jadvalda ko'rish mumkin. Unga ko'ra, eslab qolingga bank nomlari va foydalanish-dagi bank kartasi nomi o'ttasidagi munosabat yuqori ehtimollik bilan chambarchas bog'liq ekanligini qayd etish lozim. Boshqacha aytganda, insonlar bank nomlarini eslab qolishlari tasodifiy ahamiyatga ega emas.

Insonlar banklarning nomlarini yozgan paytalarida o'zлari ishlataladigan bank kartalarida keltirilgan bank nomlari kuchli ta'sirga ega bo'lmoqda. Bu esa, banklar томонидан ish haqi loyihasi doirasida jalb etilgan mijozlarni bank xizmatlardidan foydalanuvchi doimiy mijoz sifatida ushlab qolish muhim ekanligini ko'rsatadi.

Bizningcha, bank kartalariga yuridik shaxslar xodimlari sifatida ega bo'lish banklar uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Boshqacha aytganla, ish haqi loyihasi asosida bank kartalariga ega bo'lgan mijozlarga bankning chakana xizmatlari to'g'risida ko'proq ma'lumotlar berish, ularga qo'shimcha imtiyozlar asosida bank xizmatlarini taklif etish yuqori samara berishini qayd etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotlarimizni davom ettirgan holda ijtimoiy va iqtisodiy omillarni insonlarning moliyaviy qarorlarni qabul qilish va bank depozitlari bo'lgan moyilligini baholashga e'tibor qaratamiz. Bunda dastlab insonlarning jamg'armalarga ega bo'lishi bilan depozitga moyillikni tekshirib ko'ramiz.

Stata 17 dasturiy ta'minoti asosida ko'p omilli logistik regressiya (multinomial logistic regression) metodidan foydalangan holada baholashni amalga oshiramiz.

So'rvnomada иштирок etganlardan jinsi, yoshi, ma'lumoti, oilaviy ahvoli va bandlik (ijtimoiy holati) kabi savollar so'rалган. Ushbu omillar orqali depozitlarga bo'lgan munosabatga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni tizimlashtirish mumkin bo'ladi. Mazkur omillarni dastlab insonlarning jamg'armalari (ortiqcha mablag'lari bo'lganda) nima qarorga kelishlarini tahlil etib ko'ramiz (4-jadvalga qarang).

**4-jadval. "Ortiqcha mablag'lar bo'lganda nima qilar edingiz?" savoliga berilgan javoblarning ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanishi**

Kuzatishlar soni – 522ta, F (20, 502)=3.29, Prob>F=0.0000

	Coef	P>t	Coef	P>t	Coef	P>t	Coef	P>t
<b>Ijtimoiy ko'rsatkich nomi</b>	<b>Omonatga qo'yaman</b>		<b>AQSH dollarini olaman</b>		<b>Aksiya olaman</b>		<b>O'zimda saqlayman</b>	
<b>Yosh</b>	.038	.002	.006	-.029	-.058	-.131	.017	-.029
<b>Jins</b>	-.017	-.537	-.147	-.649	-1.07	-1.74	.545	-.031
<b>Ma'lumoti</b>	.041	-.244	-.001	-.329	.345	-.034	.0518	-.332
<b>Oilaviy ahvoli</b>	.367	-.083	.354	-.117	.226	-.429	.0657	-.544
<b>Bandlik</b>	.123	-.009	-.026	-.162	.216	.059	.306	.150
<b>_cons</b>	-2.40	-4.12	-.753	-2.736	-.289	-3.25	-3.32	-5.73
Uy olib ijara beraman	(base outcome)							

4-jadval asosida so'rvnoma иштирокчilarida jamg'armalar mavjud bo'lganda (mazkur tuzilgan model statistik ahamiyatga ega hisoblanadi):

Birinchidan, yoshning ortib borishi omonatga qo'yish va mablag'larni o'zida saqlashda statistik ahamiyatga ega bo'lmoqda. Shuningdek, ijtimoiy holat (iqtisodiyotda band bo'lish shakli) ham omonatga nisbatan ijobjiy ta'sirga ega bo'lmoqda.

Ikkinchidan, AQSH dollariga bo'lgan moyillik esa yoshning kichik bo'lishi bilan bog'liq bo'lmoqda.

Uchinchidan, insonlarning ma'lumoti (ta'lim olganlik darajasi) oshib borishi bilan aksiya olishga bo'lgan qiziqish ortishini ko'rish mumkin.

To'rtinchidan, ayol jinsidagi иштирокчilar pul o'zimda saqlashga moyil bo'lmoqda.

Bizningcha, banklar томонидан depozit siyosatini ishlab chiqishda katta yoshdagagi erkaklarga yo'naltirilgan reklamalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'lar ekan. Kichik yoshdagilar uchun xorijiy valyutadagi depozitlarni taklif etishga qaratilgan reklamalarni ishlab chiqish lozim ekanligi asoslanmoqda. Shu boisdan, tijorat banklari томонидан ishlab chiqiladigan depozit siyosatida ijtimoiy omillarni inobatga olish muhim bo'lar ekan.



Bankka omonat-pul qo'yishda bankni qanday sabab bilan tanlaysiz? deb berilgan savolga ijtimoiy omillarni ta'sir etish darajasini baholash uchun tahlillarni davom ettiramiz. 5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarda omonatni tanlashda potensial mijozlar qanday omillarga e'tibor qaratishlarini aniqlashga harakat qilamiz.

Omonat balansining minimal talablar asosida taklif etilishi mijozlar uchun mablag'larni boshqarishda qulayliklar yaratishi ma'lum hisoblanadi. Bunda oilaviy ahvoli asosiy ta'sir etuvchi omil bo'lmoqda. Bunda turmush o'rtog'i bo'lganlar omonatning minimal talabi bilan taklif etilishiga moyillik bildirishmoqda.

Omonat muddatining qisqa bo'lishi mijozlarni jalg etuvchi asosiy omillardan biri emasligini ko'rish mumkin. Bunda barcha omillarga doir bo'lgan p-value qiymati statistik ahamiyatga ega bo'layotganligi yo'q.

E'tiborga molik jihat shuki, bankning mashhurligi omonatga mablag' qo'yuvchilar uchun ko'proq ahamiyatga ega bo'lmoda. Jumladan, turmush o'rtog'i bo'lmasi holasida mijozlar bankning mashhurligi asosida omonatga mablag' qo'yishsa, ma'lumot olganlik darajasi ortib borishi va ayollar ham bankning mashhurligini inobatga olishmoqda. Shuningdek, insonlarning ma'lumoti oshib borishi bilan ular qarindosh yoki do'stlarining tavsiyalari assosida ham depozitga mablag'l qo'yish uchun banklarni tanlashda e'tiborga olishmoqda, ekan (5-jadvalga qarang).

**5-jadval. Bankka omonat-pul qo'yishda bankni qanday sabab bilan tanlaysiz? savoliga berilgan javoblarning ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanishi**

Kuzatishlar soni – 522 ta, F (30, 492)=4,67, Prob>F=0.0000

	Coef	P>t	Coef	P>t	Coef	P>t
<b>Ijtimoiy ko'rsatkich nomi</b>	<b>Omonat balansi minimal talabi mavjudligi</b>		<b>Muddati qisqa bo'lishi</b>		<b>Bank mashhurligi</b>	
<b>Yosh</b>	-.0464172	0.431	.0459073	0.070	-.068152	0.115
<b>Jins</b>	-1.064273	0.067	-1.057233	0.090	-.9475837	0.041
<b>Ma'lumoti</b>	-.3476585	0.413	.3035736	0.358	.6286158	0.005
<b>Oilaviy ahvoli</b>	1.253106	0.001	-.1744269	0.679	-2.020151	0.000
<b>Bandlik</b>	-.0957722	0.500	-.1907779	0.228	.1309569	0.305
<b>_cons</b>	-1.147915	0.538	-2.714347	0.221	1.375687	0.395
	<b>Onlayn omonat mavjudligi bank ofisi uyimga yaqinligi</b>		<b>Qarindosh yoki do'stlarim tavsiyasiga ko'ra</b>		<b>Mablag'larim xavfsizligi uchun</b>	
<b>Yosh</b>	.01184	0.660	-.009368	0.814	-.0296263	0.068
<b>Jins</b>	-.4883151	0.253	.7498958	0.122	-.0936899	0.639
<b>Ma'lumoti</b>	.3125292	0.457	-.7761527	0.049	-.1861179	0.157
<b>Oilaviy ahvoli</b>	-.3991471	0.199	-.7171895	0.055	-.0747365	0.685
<b>Bandlik</b>	.131433	0.361	.0829429	0.325	-.073719	0.156
<b>_cons</b>	-2.864822	0.167	-.5187808	0.723	1.775886	0.024
Foizi baland bo'lishi	(base outcome)					

Qayd etish lozim, "Onlayn omonat mavjudligi yoki bank ofisi uyimga yaqinligi", "Qarindosh yoki do'stlarim tavsiyasiga ko'ra" va "Mablag'larim xavfsizligi uchun" kabi holatlar depozit siyosatida tanlovgaga sabab bo'lmayotganligini kuzatish mumkin. Faqtgina qarindoshlar omili ma'lumoti yuqori bo'lgani sari ta'sirga egaligini inobatga olmaganda, potensial mijozlar keltirilgan javob holatlariga e'tibor qaratishmayapti.

Fikrimizcha, depozit siyosatini shakllantirishda quydagi larda e'tibor bergan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchidan, omonat balansiga nisbatan minimal talablar bilan uzoq muddatga mo'ljallangan omonatlarni taklif etish.

Ikkinchidan, banklarning mashhur bo'lishiga erishish va unda turmush o'rtog'i bo'lmasanlar, ayniqsa ayollar uchun e'tiborni tortadigan omillardan foydalanib reklamalarni amalga oshirish.

Uchinchidan, omonatga do'sti yoki boshqa kimsalarni jalg etganlarga nisbatan qo'shimcha moliyaviy bonuslarni keltirgan holda mijozlarni jalg etishga e'tibor qaratish yuqori ma'lumotli shaxslarni ham depozitga mablag'lar qo'yishga jalg etishga imkon tug'iladi.



Muddati va summasi qat'iy bo'lgan yuqori foiz stavkali omonatga qiziqasizmi? degan savolga yosh, jins, ma'lumoti, oilaviy ahvoli va bandlik kabi ijtimoiy omillarning ta'siri baholanganda ushbu model statistik ahamiyatga ega bo'lmadi. Sababi esa,  $F(5, 517) = 1.34$  va Prob > F = 0.2451 (p-value) ko'rsatkichlarining vujudga kelganligi ushbu baholashni amalga oshirish zaruratinini to'xtatdi. Bu esa, ijtimoiy omillar qat'iy foiz va muddatga ega bo'lgan depozitlar mijozlarni qiziqtirmasligini o'zida aks ettirib berdi.

Bizningcha, muddati va summasi qat'iy bo'lgan yuqori foiz stavkali omonat siyosatining amalga oshirilishida ma'lum ma'nodagi tebranishga ega bo'lgan depozit siyosati shartlarini ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'yaymiz. Bu esa, depozitga mablag'lar jaalb etishning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Onlayn omonatga munosabatingiz degan savolga nisbiy baholash nuqtayi nazaridan javoblar berilgan. Mazkur javoblardan birini tanlash orqali depozitga nisbatan potensial mijozlarning fikrlarini aniqlash mumkin bo'ladi (7-jadvalga qarang).

**7-jadval. "Onlayn omonatga munosabatingiz" savoliga berilgan javoblarning ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanishi**  
Kuzatishlar soni – 522 ta, F (5, 517)=5,54, Prob>F=0.0001

Ijtimoiy ko'rsatkich nomi	Coef	Std. Err.	t	P>t	[95% Conf.]	Interval]
<b>Yosh</b>	-0.0409874	.0143224	-2.86	0.004	-.0691242	-.0128506
<b>Jins</b>	-.1111961	.1570326	-0.71	0.479	-.4196909	.1972987
<b>Ma'lumoti</b>	-.0330444	.1128535	-0.29	0.770	-.2547483	.1886594
<b>Oilaviy ahvoli</b>	-.0907876	.1305574	-0.70	0.487	-.3472713	.1656961
<b>Bandlik</b>	.1061075	.0407513	2.60	0.009	.0260505	.1861645
<b>/cut1</b>	-2.028073	.5822096			-3.17184 -	.8843061
<b>/cut2</b>	-.8321675	.575451			-1.962657	.298322
<b>/cut3</b>	.3042823	.5726582			-.8207205	1.429285

Onlayn omonat turlari yosh kichik bo'lganlar uchun sezilarli ahamiyatga ega bo'layotganligini qayd etish lozim. Shuningdek, ijtimoiy holatning ham javoblar ketma-ketligi tartibida qaraganda talaba maqomidagilar uchun ko'proq qiziqarli bo'layotganligini ta'kidlash lozim. Umuman olganda, raqamli texnologiyalar asosida masofadan turib onlayn omonatlarning jozibadorligi yuqori bo'lmayotganligini kuzatish mumkin. Bu esa, qo'shimcha tadqiqotlar asosida onlayn omonat bilan bog'liq yendensiyalarni ham miqdoriy, ham sifat ko'rsatkichlarini tahlil etishni taqozo etadi, deb o'yaymiz.

Bizningcha, banklarning depozit siyosatini ishlab chiqishda ijtimoiy omillarni inobatga olgan holda ishlab chiqilishi muhim bo'imqoda. Bu esa, banklarning depozit siyosati mijozga yo'naltirilgan bo'lishiga xizmat qiladi, deb ishonamiz.

Tadqiqotlarimizni davom ettirgan holda banklarning depozit siyosatiga iqtisodiy omillarning ta'sirini aniqlashga e'tibor qaratamiz. Bunda so'rovnomada ma'lumotlarini tahlil etish bilan amalga oshirishda davom etamiz. Biz iqtisodiy omillar sifatida ishtirokchilarining oylik daromadlari, oilalarining daromadlari, bank hisob raqamining mavjudligi va moliyaviy operatsiyalaridan keshbek olishni istashlari yoki yo'qligi nuqtayi nazaridan tahlil etishga harakat qilamiz (8-jadvalga qarang).

**8-jadval. "Ortiqcha mablag'lar bo'lganda nima qilar edingiz?" savoliga berilgan javoblarning iqtisodiy omillar ta'sirida shakllanishi**

Kuzatishlar soni – 522 ta, F (16, 506)=2,48, Prob>F=0.0012

	Coef	P>t	Coef	P>t	Coef	P>t	Coef	P>t
Ijtimoiy ko'rsatkich nomi	Omonatga qo'yaman	AQSH dollari olaman	Aksiya olaman	O'zimda saqlayman				
<b>Oila daromadi</b>	-.418214	0.004	-.07725	0.606	-.0831	0.602	-.439015	0.005
<b>Shaxsiy daromad</b>	.063579	0.654	-.24574	0.111	-.3744	0.034	-.083438	0.662
<b>Bank hisobraqami</b>	.240592	0.296	-.06159	0.811	.6877	0.005	.186515	0.422
<b>Xarajatlardan keshbek</b>	-.096075	0.687	-.03467	0.874	-.4723	0.101	.305102	0.141
<b>_cons</b>	.635065	0.270	.550494	0.366	-.0836	0.897	.315710	0.633
Uy olib ijara beraman		(base outcome)						



So'rovnoma da ishtirok etgan shaxslar tomonidan ortiqcha mablag'larga egalik qilish imkonini bo'lganda ular qanday moliyaviy qarorlar qabul qilishi aniqlash uchun berilgan savolga javoblar tendensiyasi 9-jadvalda tahlil etilgan. Unga ko'ra, tuzilgan modelda p-value=0.0012 ga va F-statistic teng bo'lganligi modelning statistik ahamiyatga ega ekanligini ifodalab beradi. Mazkur tahlillar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

Birinchidan, oila umumiy daromadning ortib borishi omonatdan ko'ra, uni o'zlarida saqlashlariga moyilik ortib borishini ko'rish mumkin.

Ikkinchidan, shaxsiy daromadning ortib borishi aksiya sotib olishga bo'lgan intilishni kamaytirib borishini ko'rish mumkin.

Uchinchidan, bank hisob raqamiga ega bo'lishning omonat tarzida shakllanishi aksiya sotib olishga bo'lgan qiziqishni ortishiga olib kelmoqda ekan.

To'rtinchidan, xarajatlardan keshbek olishni istamagan shaxslar depozit yoki aksiya sotib olishga nisbatan ham e'tiborsiz ekanliklarini kuzatish mumkin.

Umuman olganda, insonlarning daromadlari ortib borishi omonatga nisbatan to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatmayapti. Aksincha, ularning daromadlari kam bo'lgan holatlarda depozitga nisbatan moyillik kuchayayotganligini ko'rish mumkin. Natijada, oilalar ortiqcha mablag'larini banklarda emas balki o'z uylarida saqlayayotganliklarini ko'rsatib bermoqda. Makroiqtisodiy "likvidlik tuzog'i" mavjud ekanligidan ayrim belgilarni o'zida ifodalab beradi. Bu esa, mamlakatdda yashirin iqtisodiyot omilining ta'sir etishi mumkinligini istisno etmasligini tahlil etish zaruratinini keltirib chiqaradi. Shuningdek, insonlarning shaxsiy daromadlarini oshishi ham aksiya sotib olishga bo'lgan moyillikni kuchaytirish emas, aksincha bo'layotganligini kuzatish mumkin (9-jadvalga qarang).

Fikrimizcha, potensial mijozlarda depozitga nisbatan moyillikning shakllanishi ularning daromadlari emas, balki ularning norasmiy daromadlari ortishi bilan qiziqish yuzaga kelishi mumkinligini ifodalanmoqda. Bu esa, makroiqtisodiy likvidlik tuzog'i kuchayib, yashirin iqtisodiyotni rivojlanishi ehtimolligini vujudga keltiradi. Shu boisdan, iqtisodiyotda norasmiy daromadlar va likvidlik tuzog'i ni bartaraf etishga qaratilgan moliyaviy siyosatni amalga oshirilishi bank tizimiga bo'lgan ishonchni oshishiga xizmat qiladi, deb o'yaymiz.

**9-jadval.** Bankka omonat-pul qo'yishda bankni qanday sabab bilan tanlaysiz? savoliga berilgan javoblarning iqtisodiy omillar ta'sirida shakllanishi

Kuzatishlar soni – 522 ta, F (24, 498)=3,36, Prob>F=0.0000

	Coef	P>t	Coef	P>t	Coef	P>t
<b>Ijtimoiy ko'rsatkich nomi</b>	<b>Omonat balansi minimal talabi mavjudligi</b>		<b>Muddati qisqa bo'lishi</b>		<b>Bank mashhurligi</b>	
<b>Oila daromadi</b>	-.7209992	0.007	-.2011901	0.305	-.103711	0.656
<b>Shaxsiy daromad</b>	.4522236	0.154	.6925962	0.004	-.1680466	0.598
<b>Bank hisob raqami</b>	.3780317	0.450	.4754813	0.364	.0170213	0.959
<b>Xarajatlardan keshbek</b>	.5459746	0.257	.4521155	0.341	.1316244	0.704
<b>_cons</b>	-2.782832	0.049	-5.108438	0.001	-1.603816	0.136
	<b>Onlayn omonat mavjudligi bank ofisi uyimga yaqinligi</b>		<b>Qarindosh yoki do'stlarim tavsiyasiga ko'ra</b>		<b>Mablag'larim xavfsizligi uchun</b>	
<b>Oila daromadi</b>	-.190234	0.376	-.6495074	0.016	-.1727887	0.121
<b>Shaxsiy daromad</b>	.0603364	0.818	.950896	0.002	.070649	0.543
<b>Bank hisobraqami</b>	-.7129147	0.139	.9160368	0.003	-.0432848	0.813
<b>Xarajatlardan keshbek</b>	.9242675	0.002	1.639576	0.000	.7590686	0.000
<b>_cons</b>	-2.202874	0.023	-6.419968	0.000	-.5530981	0.227
<b>Foizi baland bo'lishi</b>		(base outcome)				



9-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarda omonat qo'yish uchun insonlar qanday sabab bilan bankni tanlashiga ularning moliyaviy holatlari ta'sir etishini aniqlashga harakat qildik. Mazkur model keltirilgan test ko'rsatkichlari koeffitsenti asosida statistik ahamiyatga ega bo'lmoqda. Undan quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

Birinchidan, oila daromadaning ortib borishi omonat balansining minimal talabi mavjudligi bilan bog'liq bo'lsada, ular o'tasidagi munosabat teskari proporsional ekanligini ta'kidlash lozim.

Ikkinchidan, shaxsiy daromadi oshib borgan insonlarda qisqa muddatli depozitlarga bo'lgan moyillik yuqori ekanligini ta'kidlash lozim. Ularning oila a'zolaridan holi bo'lgani holda qaror qilganda qisqa muddatda daromadlarini ko'paytirishga intilishlari mavjud ekan.

Uchinchidan, bankning mashhurligi daromadlar asosida tanlashga hech qanday ta'sir ko'rsatmas ekan. Bu esa, insonlar daromadlari ko'p yoki kam bo'lishi daromadlarini boshqarishda bankning mashhurligi ta'sir etmas ekan.

To'rtinchidan, xarajatlardan keshbek olishni bilmasligini ma'uml qilgan insonlar onlayn omonatni mavjud bo'lishi yoki bank ofisi uylariga yaqin bo'lishiga e'tibor qaratishar ekan. Shuningdek, ular bank tanlashda mablag'larining xavfsizligi uchun ham e'tiborli bo'lishar ekan. Bu esa, xarajatlardan keshbek olishni bilmagan insonlar daromadlarni boshqarishda omonatlarga nisbatan ratsional yondashuvga ega bo'lmagligi mumkin ekan.

Beshinchidan, e'tiborli jihat insonlarning daromadlarini boshqarishlarida omonat bo'yicha bank tanlashda qarindosh yoki do'stlar tavsiyasiga qulqutishlari chambarchas bog'liq ekan. Bunda, oila daromadi oshib borgan sari qarindosh yoki do'stlarni eshitishsada, teskari bog'liq mavjudligini ko'rish mumkin. Bu esa, oilalarning moliyaviy mustaqil tarzda qarorlar qabul qilishga bo'lgan moyilligini ifodalab beradi. Qolgan barcha holatlarda qarindosh yoki do'stlar maslahatiga rioya qilish to'g'ri proporsional rivojlanar ekan. Tanishlar orqali maslahatlar olish mamlakatimiz qadriyatlar xos ekanligi ushbu tahlilda ham o'z isbotini topmoqda.

Fikrimizcha, insonlarning daromadlari banklarni tanlashda ma'lum darajada ta'sir darajasiga ega bo'lar ekan. Bunda individual asosida qisqa muddatli depozitlarga moyillik kuchli bo'lsa, xarajatlarni onlayn boshqarishni bilmaslik omonatlarga nisbatan ham ratsional fikrlamaslikni keltirib chiqarish ma'lum bo'ldi. Shuningdek, do'st yoki qarindoshlarning tavsiyalariga aksariyat hollarda rioya etilishi e'tiborga molik jaran ekanligini qayd etish lozim (10-jadvalga qarang).

**10-jadval. "Onlayn omonatga munosabatingiz" savoliga berilgan javoblarning iqtisodiy omillar ta'sirida shakllanishi**  
Kuzatishlar soni – 522 ta, F (5, 517)=5,54, Prob>F=0.0001

Ijtimoiy ko'rsatkich nomi	Coef	Std. Err.	t	P>t	[95% Conf.]	Interval
Oila daromadi	.0226022	.0897464	0.25	0.801	-.1537072	.1989115
Shaxsiy daromad	-.1606119	.103457	-1.55	0.121	-.363856	.0426322
Bank hisobraqami	.2450578	.1696258	1.44	0.149	-.0881768	.5782924
Xarajatlardan keshbek	.4725628	.1201791	3.93	0.000	.2364676	.7086581
/cut1	.3909577	.3854768			-1.148237	.3663221
/cut2	.781156	.3845338			.0257286	1.536583
/cut3	1.902687	.393809			1.129038	2.676335

Onlayn omonatga nisbatan munosabatning shakllanishi daromadlar bilan bog'liqligini aniqlashda ordered logistic regression usulidan foydalangan holda tahvilni amalga oshirdik. Mazkur metodning tanlanishiga sabab javoblar nisbiylik (yuqorida quyiga) xususiyatini aks etirishi natijasida qo'lladik. 10-jadvalda keltirilgan model F-test va p-value qiymatlari asosida modelimiz statistik ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Xarajatlardan keshbek olishni bilmaydigan insonlar onlayn omonatlarni ijobji baholasada, ular o'tasida bog'lik koeffitsiyenti katta emasligini ko'rish mumkin. Umuman olganda, daromadlarning qanday bo'lishidan qat'iy nazar onlayn omonatlarga nisbatan nobarqaror munosabatni kuzatamiz. Boshqacha aytganda, ular o'tasida statistik ahamiyatga ega bo'lgan bog'liqlik vvujudga kelayotganligi yo'q.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, banklarning depozit siyosatiga nisbatan ijtimoiy va iqtisodiy omillarni ta'sir etish ehtimolligini aniqlashga e'tibor qaratdik. Insonlarning moliyaviy qarorlar qabul qilishlarida ularning daromadla-



ridan ko'ra, ijtimoiy holatlari ko'proq ta'sir etayotganligini ta'kidlash lozim. Jumladan, ayollar xorijiy valyuta sotib olishga nisbatan moyilligi yuqori bo'lsa. Yoshi kichik avlodning onlayn bank xizmatlariga nisbatan qiziqishlari yuqori bo'lmoqda.

Individual yoki erkaklarning o'zлari mustaqil bo'lganda daromadlarini omonatlar orqali boshqarishga nisbatan e'tibor kuchayar ekan. Shuningdek, qarindosh yoki do'stlarning tavsiyalari har qanday holda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi banklar tomonidan depozit siyosatini ishlab chiqishda inobatga olish zaruratinif ifodadab beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Han, Rui and Melecky, Martin, Financial Inclusion for Financial Stability: Access to Bank Deposits and the Growth of Deposits in the Global Financial Crisis (August 1, 2013). World Bank Policy Research Working Paper No. 6577, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=2312982>
2. Nemilentseva, M., Dehkordi, B. B., & Soutar, K. N. (2023). Estonian FinTech Evolution: The Past, Present, and Future. In FinTech Research and Applications: Challenges and Opportunities (pp. 385-417).
3. Botsvadze, I. (2020). Banking concentration impact on market structure of post-soviet and eu member country—Estonia. Globalization and Business, 5(9), 77-85.
4. Bakashbayev, A., Nurgaliyeva, A., Gumar, N., Khamidullina, Z., & Saduakassova, M. (2020). Examining the trends in bank deposits through internal and external factors based on the supply chain strategies: A primary and secondary data survey. International Journal of Supply Chain Management, 9(2), 526-536.
5. Delice, G., & Karadaş, H. A. (2022). Structure and stability of the Kazakhstan banking system. Karamanoğlu Mehmetbey Üniversitesi Sosyal ve Ekonomik Araştırmalar Dergisi, 24(42), 387-414.
6. Salina, A. P., Zhang, X., & Hassan, O. A. (2021). An assessment of the financial soundness of the Kazakh banks. Asian journal of accounting research, 6(1), 23-37.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

